



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Камбарова Дилорам Юсуповна**

*Фаргона давлат университети доценти, педагогика фанлари  
номзоди*

## TALABALARDA CHET TILINI O'QITISHDA IJODIY FIKRLASH QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

### **Annotatsiya**

maqoladatalabalarda chet tilini o'qitishda ijodiy fikrlash qobilyatini rivojlantirish texnologiyasi tahlil qilingan. Shuningdek, chet tili darslarida mustaqil, erkin fikrlashga, mavzular bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilimlarni o'zlari izlanib topishlari uchun pedagogik texnologiyaning muammoli savol, mantiqiy savol metodlari asosida ishlashga oid xulosalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** ijodiy ta'lim metodi, kompetensiya, axborot texnologiyalari, uyg'unlik, kognitivlik, tizimli yondashuv, ijodkorlik.

Bugungi kunda pedagogikani rivojlanib borish bilan talabalarni mustaqil ijodiy ta'lim jarayonida bahs-munozara, musobaqa, ssenariyli dars, konferensiya dars, sayohat darsi, nazm darsi, suhbat darsi, tahlil darsi kabi dars turlari amaliyotga tadbiq etildi. Bu metodlarni suhbat darsining turli xil shakllarga kiritish mumkin.

Ushbu dars metodlarining orasida "Ssenariyli dars" metodi talabalarni ijodiy faoliyatga undashi bilan izohlash mumkin. Talaba tomonidan o'qib chiqilgan badiiy asar yuzasidan ssenariy tuzish ham o'ziga xos ijodiy fikr mahsuli deb hisoblash mumkin. Bu metodda ham talabalar mustaqil va ijodiy fikrlash qobilyatiga ega bo'ladilar. Talabani ijodkorlikka o'rgatishda ssenariyli darsdan ham foydalanish eng samarali usuldir. "Ssenariyli dars" metodi S.Yaminova tomonidan alohida o'rganilgan dars metodlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur mustaqil ijodiy ta'lim metodida asarlarning badiiy tahlili yotadi. Badiiy asarlarni har xil metodlar ko'magida o'quv tahliliga tortishda, ular bilan ishlash borasida Talabalarning ijodkorligini rivojlantiradigan, mantiqiy mulohaza yuritishga o'rgatadigan usuldir. Bu usulda talaba o'z fikri va xulosasini bayon etishga majbur qiladigan savol-topshiriqlar berish lozim[1].

Tadqiqotlarimizda 1-bosqichtalabalarida chet tili darslarida mustaqil, erkin fikrlashga, mavzular bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilimlarni o'zlari izlanib topishlari uchun pedagogik texnologiyaning muammoli savol, mantiqiy savol metodlari asosida ishlashga yo'naltirdik. Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, talabada ijodkorlik, va tadqiqotchilik faoliyati rivojlanishiga yordam beradi. Talabani ijodkorlikka yo'naltirishda avvalo navbatda aynan fan uchun emas, balki talaba uchun yangilikni kashf etishi, muammoni o'rganish talabaning hayotiy tajribasi va qiziqishlari bilan bog'liq bo'lishi kerak. Buning uchun o'qituvchi talabani darslikdagi mavzu matni va uni mustahkamlovchi savollar bilan chegaralab qo'ymasdan ularga muammoli savollar orqali tadqiqiy faoliyat shakllanishiga etibor berishi lozim.

Talabalar muammoli savollarga javoblar tayyorlash uchun darslik, o'quv qo'llanmalar, internet manbalari, elektron darslik asosida ishlaydilar, olgan ma'lumotlarni tizimga soladilar, taqdimot uchun asosiy tushunchalarni ajratadilar, berilgan muammo yechimlarini asoslab berish uchun izlanadilar va talabalar tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltiriladi.

Kompetensiyalar tarkibiga kiruvchi "Axborot bilan ishlash kompetensiyasi" mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish; media vositalardan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta'minlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish; ma'lumotlar bazasini yarata olish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish; kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (oddiy tabriknomalar yoza olish, anketalarni to'ldirish, mehmonxona ro'yxatida o'zi to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd eta olishi va boshqalar) kompetensiyalari ta'lim muassasasidagi axborotlashgan muhit ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga, talabalarda ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishga, ularda tadqiqotchilik elementlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bizga ma'lumki, har qanday yangilik talaba e'tiboridan chetda qolmaydi. Axborot texnologiyalari tizimi talabalarda axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi asosida ta'lim olishni ta'minlaydi. Buning uchun umumta'lim maktablarida bu jarayonlar hali o'z yechimini topgan emas. Uzluksiz ta'lim jarayonini modernizatsiyalash jarayonida fan o'qituvchilari o'quv amaliyotida talabalar ijodiy fikrlash qobiliyatini mustaqil o'zlashtirishga olib keladi. Bu esa amaliy va ilmiy bilish, milliy va muammolarni osongina yechish asosidagi tadqiqotchilikka o'rganishga asos bo'ladi.

1. Bugungi kunga kelib, o'qituvchilar diqqat-e'tiborini talabalarning bilish faolligini ta'minlashning innovatsion metodlariga qaratish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida talaba va o'qituvchi AKTdan unumli foydalansalar, ularning ijodiy fikrlash faolliklari jadallashib, subyekt-subyekt doirasi kengayadi.
2. Ma'lumki, jamiyat va davlatning hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlari, talabalarda axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish ko'p jihatdan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari(AKT) bilan bog'liq. Bu axborotni izlash, yig'ish va ish

bilan ta'minlash, shu jumladan, Internet tarmog'i bilan birgalikda axborotni yetkazib berish va saqlash vositasidir. Tadqiqot jarayonida AKTdan foydalanish ilmiy izlanishlarni sifatini yaxshilash va tadqiqot samaradorligini oshirish imkonini beradi. Har qanday pedagogik texnologiya axborot texnologiyasidir, chunki ilmning texnologik jarayonning asosi axborotni olish va o'zgartirishdir. Talabalar uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda tadqiqot materiallarni tanlash muhim bo'lib, uni tanlashda didaktik prinsiplarga rioya qilinadi:

- ✓ muammolik,
- ✓ mavzuga oidlik
- ✓ dolzarblik,
- ✓ uyg'unlik,
- ✓ kognitivlilik,
- ✓ tizimli yondashuv,
- ✓ ijodkorlik
- ✓ axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish talabalarda quyidagi ijodiy faollikni to'liq amalga oshirish imkonini beradi:
- ✓ Ishonchlilik;
- ✓ Fikrlash[2].
- ✓ Ijodkorlik faoliyatida AKTdan foydalanishning asosiy maqsadi talabalarda fikrlashni rivojlantirish, ularda fikrlash qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, u quyidagi maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan:
- ✓ Axborot jarayonlari, tizimlar, texnologiyalar va modellar bo'yicha ilmiy g'oyalar asosini tashkil etuvchi bilimlarni o'zlashtirish;
- ✓ Kompyuter, internet va boshqa AKT vositalaridan foydalangan holda turli xil axborot vositalari bilan ishlash qobiliyatlarini o'zlashtirish, ijodkorlik faoliyatni tashkil etish va natijalarini rejalashtirish;

Axborotlarni tarqatishning huquqiy va axloqiy jihatlarini hisobga olgan holda axborotga mas'ul munosabatda bo'lish; qabul qilingan ilmiy ma'lumotlarga tanlangan munosabat.

AKTdan tadqiqot ishlarida foydalanishning afzalliklari:

1. Tadqiqot ishlarini individuallashtirish;
2. Tadqiqot ishini jadallashtirish;
3. Tugallangan tadqiqotlar hajmining o'sishi;
4. Internetdan foydalanayotganda axborot oqimlarini kengaytirish.
5. Tadqiqotni kompyuter va internet ma'lumotlari bilan birlashtirish, tadqiqot ishining bir qismini kompyuterga o'tkazishga imkon beradi, bu esa tadqiqot jarayonini yanada qiziqarli, xilma-xil va intensiv bajarishga imkoniyat yaratadi.
6. Kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish o'qituvchiga qisqa muddatda barcha talabalar tomonidan o'rganilayotgan materiallarni o'rganish darajasini aniq ko'rsatish va uni o'z

vaqtida tuzatishga imkon beradi. Shu bilan birga, muayyan vazifaning qiyinchilik darajasini aniqlash mumkin.

Internet, audio va video majmualar, multimedia o'quv kompyuter dasturlari kabi yangi axborot texnologiyalari o'rta ta'lim maktablarida keng qo'llash yo'lga qo'yilmoqda. Ushbu texnologiyalarning barchasitalabalarning ijodkorligini rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratishga yordam beradi, ularning qiziquvchanligini oshiradi va tadqiqot ishlariga qiziqishini kuchaytiradi. Bundan tashqari, bu quyidagi bir qator didaktik vazifalarni samarali echishga imkon beradi:

O'qish (Reading) qobiliyatini oshirish;

Zamonaviy xorijiy so'zlar bilan so'z boyligini kengaytirish;

Monologik va dialogik nutq ko'nikmalarini takomillashtirish;

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalar chet tillarini o'qitish jarayonini sezilarli darajada boyitadi va o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini yanada oshiradi. Intellektual, ijodiy izlanish paydo bo'ladi. Bu doimiy o'z-o'zini tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan, faol, maqsadga muvofiq, yangi turdagi shaxsni yaratishga yordam beradi. Shunday qilib, axborot texnologiyalari o'quv jarayonining samaradorligini oshirishni, uni individualizatsiya qilishni, o'qituvchilar va talabalarning faol pedagogik hamkorligini qo'llab-quvvatlaydi. Kompyuterlar qo'llanilishi o'qitishni boshqarishni optimallashtirishga, o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga, o'qituvchilarning o'quv materiallari bilan ishlash vaqtini tejashga, uni qidirishni, tahlil qilishni, tanlashni soddalashtiradi va o'qitishning yangi tashkiliy shakllarini qo'llash imkoniyatini beradi.

### Adabiyotlar

1. Хўжамбердиева, Д. А. (2022). Талабаларда Ижодий Фикрлашни Ривожлантириш Йўллари. *ScienceAndEducation*, 3(2), 1424-1429.
2. Siddikov, I. B. (2021). Modern Models of Providing Autonomy Of Higher Educational Institutions (Analysis Of Foreign Countries Experience). *Current Research Journal of Pedagogics* (2767-3278), 2(05), 25-31.
3. Bakhromovich, S. I. The Phenomenon of Management and Leadership Personality In The Views Of Oriental Scholars. *Chief Editor*.
4. Bakhromovich, Siddikov Ilyosjon, and Maxamadaliyev Lutfillo. "Development of Ecological Culture In Students In The Process Of Education Of History Of Uzbekistan." (2021).